ARCHITECTURE & ENGINEERING GROUP

Qurilish vazirligi huzuridagi
"Urbanizatsiya va shaharsozlik hujjatlarini
ishlab chiqish Respublika markazi"

TURIZM QO'MITASI

REZAKSOY

NAMANGAN VILOYATI CHUST TUMANI "CHUSTNON-DO'STLAROBOD" MFY HUDUDIDA LOYIHALANAYOTGAN TURISTIK MASTER-REJA

Elektron shakli



Prezident joriy yil yanvarida tumanlarning master rejalari yo‘qligini tanqid qilib, “bu — korrupsiyaga asos” ligini aytgandi. U bosh vazir o‘rinbosariga yil oxirigacha 70 ta, 2025-yilda esa O‘zbekistonning barcha tumanlari bo‘yicha master rejalar ishlab chiqish topshirig‘ini bergan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 8 iyul kungi “Hududlarning iqtisodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish va bo‘sh yer uchastkalaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-245-son qarorida hududlarni iqtisodiy rivojlantirish va urbanizatsiya jarayonlarini jadallashtirish, jumladan, tumanlar va shaharlarning drayver yo‘nalishlarini amalga oshirish uchun master-rejalarni ishlab chiqish amaliyotini keng joriy qilish ko‘zda tutilgan.

MUNDARIJA

1-vazifa: Master-reja hududining joriy iqtisodiy-ijtimoiy holati bo'yicha tahlil

1.1. Yerdan foydalanish holati va uning ixtisoslashuvi tahlili 7

1.2. Hududning rivojlanishiga ta'sir etuvchi iqtisodiy-ijtimoiy omillar, aholi soni va o'rtacha oylik daromadi, uy - joy bilan ta'minlanganlik darajasi tahlili 7-8

1.3. Yashil maydon bilan qamrab olinganligi, jamoat joylari, transport, muhandislik kommunikatsiyasi infratuzilmalari, tabiiy gaz va energota'minot holati tahlili 9-11

Tanlangan hudud bilan bog'liq holda iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha holat, shu jumladan xizmatlar sohasi tahlili 12-13

1.5. Manfaatdor idora va tashkilotlar, jumladan mahalliy hokimiyat vakillari, Loyiha hududi tumandagi biznes egalari, mahalla faollari bilan suhbatlashildi va tanlangan hudud doirasida yoki tuman miqiyosida - aholi o'rtasida telegram platformasi orqali so'rovnoma natijasi 14

1.6. Sayyohlik oqimi va turistlar tarkibi 15-16

1.7. Hududning turizm jozibadorligi 17

1.8. SWOT tahlillar 18-19

2-vazifa: Master-reja hududining iqtisodiy-ijtimoiy holati

2.1. Hududning geografik joylashuvi va iqtisodiy "drayverlari" 21-24

2.2. Loyiha hududi joylashgan tuman, viloyatning joriy iqtisodiy profili (salohiyati) 25

2.3. Malakasi darajasini ko'rsatgan holda ishchi kuchi (mahalliy va tuman) tahlili 26

2.4. Loyiha hududining tumandagi joylashuvidan kelib chiqadigan potensial va uning rivojlanishi kengroq shahar kontekstiga bog'liqligi 27

2.5. O'zbekiston sharoitida ham amalga oshirish mumkin bo'lgan xalqaro tajribalar 28-30

2.6. Hududning geografik joylashuvi va iqlimiy ko'rsatkichlari 31-34

3-vazifa: Hududni rivojlantirish maqsadlari

3.1. Manfaatdor tomonlar bilan kelishgan holda hududni kelgusida rivojlantirishning konseptual yo'nalishlari va maqsadli ko'rsatkichlari 36

3.2. Hududning funksional zonalashtirish, "yashil" iqtisodiyot tamoyillarini keng qo'llagan holda hududni iqtisodiy - ijtimoiy jihatdan rivojlantirishda o'rta muddatda amalga oshiriladigan ishlar, investitsiyalar, hududning infratuzilmalarini yanada yaxshilash, yashil maydonlarni ko'paytirish hamda atrof-muhitni muhofaza qilish choralari 37

4-vazifa: Taklif etilayotgan investitsiya va infratuzilma loyihalari

4.1. Chiqindilarni yig'ish, atrof - muhitni muhofaza qilish bo'yicha zarur choralar 38

4.2. Davlat va xususiy investitsiyalarining ro'yxati va ularning qiymati 39-40

4.3. Ish o'rinlarini yaratish va imkon qadar, iqtisodiy ishlab chiqarishni ko'paytirish bo'yicha kutilayotgan ijtimoiy - iqtisodiy foyda ..... 39(Jadvalda)

4.4. Asosiy investitsiya loyihalari 41-45

5-vazifa: Yerdan foydalanish va master reja loyihasi

5.1. Investitsiya loyihalarning joylashuvini ko'rsatgan holda yerdan foydalanish rejasi, arxitektura ko'rsatmalari va dizayni 47-48

5.1.1 Loyihalanayotgan hududning aholi punkti miqyosida joylashuvi tarhi 49

Tayanch rejasi.

5.2. Hududdan joriy foydalanish holati, shu jumladan qurilishlardan holi bo'lgan yerdan joriy foydalanish holati 50

MUNDARIJA

5.3. Asosiy reja 51
5.3.1 Qurilish bosqichlari hamda boshlash va yakunlash muddatlari 52-54
5.4. Qizil chiziqlarning rejaviy chizmasi 55
5.5. Yerdan foydalanish rejasi 55
5.6. Jamoat va ijtimoiy soha obyektlarini joylashtirish rejasi
5.6.1 Obyektlarning joylashuv tarhi 57
5.6.2 Maishiy xizmat ko'rsatish obyektlari 58-59
5.7. Ochiq maydonlar va landshaft hududlar rejasi
5.7.1 Ochiq maydonlar tarhi 60-62
5.7.2. Ochiq suv havzalari 63
5.8. Shahar dizayni va arxitektura elementlari rejasi.
5.8.1 Balandliklar tarhi – joylashtirilishi rejalashtirilgan bino va inshootlarning balandligi 64
5.8.2 Me'moriy ko'rinish chizmalari 65
5.8.3 Ko'cha muhiti dizayni, ko'chalar bo'ylab qirqimlar 66
5.8.4 Qush parvozi ko'rinishi 67
5.8.5 Hududning individual logotipi 68-69
5.8.6 Hududning Dizayn kodi 70-72
5.8.7 Arxitektura elementlarining xilma-xilligi 73-75
5.8.8 Dendroplan asosida o'simlik va daraxtlarning tavsiyaviy shakli 76-79
5.8.9 Me'moriy ko'rinish chizmalari 80-81
5.9. Harakatlanish va harakat qulayligi rejasi.
5.9.1 transport harakatining yo'nalishlari, shu jumladan hududga kirish–chiqish joylari, hududni kesib o'tuvchi tranzit yo'nalishlar, transport harakati cheklovlari va samaradorligi 82
5.9.2 Jamoat transporti bekatlari, ularga yetib borish qulayligi va qamrab olish hududlari 82
5.9.3 Elektromobillar uchun quvvatlash stansiyalari 83
5.9.4 Imkoniyati cheklangan aholi, piyodalar, velosiped va yugurish yo'laklari, ko'cha va yo'llardagi o'tish joylari 84
5.10 Muhandislik jihozlash rejasi.
5.10.1 Loyihalanayotgan hududdan tashqaridagi muhandislik tarmoqlari va inshootlar hamda ularning ulanish joylari 85
5.11. Hududni muhandislik jihatdan tayyorlash va vertikal rejalashtirish rejasi (tarhi) 86-89
5.12. Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi 90
5.13. 3 o'lchamli hajmiy-fazoviy ko'rinishi 91
6-vazifa: Master reja hududining lot passportlari
6.1 Davlat va xususiy sektor tomonidan hamda davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining pasportlarini shakllantirildi va ularni realizatsiya qilindi 93-103

REZAKSOY

Master-reja loyihasining mazmun va maqsadlari

O'zbeksiton Respublikasida master - rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish orqali hududlarning drayver yo'nalishlarini harakatga keltirishda, bo'sh yer uchastkalaridan iqtisodiy jihatdan samarali foydalanishda asosiy vosita sifatida qaralmoqda.

Master-reja loyihasining mazmuni (yo'nalishlari)

- Hududlarda aholi va turistlar uchun qulay sharoitlar yaratish
- Aholi gavjum joylani obodonlashtirish hamda servis shahobchalarni tashkil etish
- Aholi va turistlar uchun qulay sharoitlar yaratish
- Lotlarga ajratgan holda realizatsiya qilish
- Infratuzilmaga bo'lgan ehtiyojni baholash

Master-reja loyihasining asosiy vazifalari

- Hududning joriy iqtisodiy-ijtimoiy holati bo'yicha tahlil
- Hududni iqtisodiy rivojlantirish salohiyati va zahiralari
- Hududni rivojlantirish tasavvurlari va maqsadlari
- Taklif etilayotgan investitsiya va infratuzilmalarni ro'yhatini shakllantirish
- Yerdan foydalanish va master-reja loyihasi
- Hududni master-reja loyihasi asosida rivojlantirish asoslari

I bob. Master-reja hududining joriy iqtisodiy-ijtimoiy holati bo‘yicha tahlil

REZAKSOY

ARCHITECTURE &
ENGINEERING GROUP

Hududning rivojlanishiga ta'sir etuvchi iqtisodiy-ijtimoiy omillar, aholi soni va o'rtacha oylik daromadi, uy - joy bilan ta'minlanganlik darajasi tahlili

Namangan viloyati umumiy yer maydoni



7900 km²

1 km²
216.2 kishi
Jami:
3.144.800 kishi

Viloyat hududining asosiy qismi Sirdaryoning o'ng sohilida, keng Farg'ona vodiysida joylashgan. Yer yuzasi, asosan, tekislik bo'lib, shimoliyda qator tepaliklar va Chatqol hamda Qurama toglari bilan o'ralgan.

Namangan viloyatining ma` muriy-hududiy bo` linishi

Shahar	Shaharcha	MFY	QFY
8 ta	10 ta	57 ta	19 ta

Namangan viloyatida turarjoy joy narxi 1m²


min 4 520 000 so'm / 1 m²
max 6 460 000 so'm / 1 m²

Namangan viloyatida yer narxi (sotix)

min 1 300 AQSH dollari/1 sotix
max 15 000 AQSH dollari/1 sotix

1.1. Yerdan foydalanish holati

- Sug'oriladigan yer maydoni - 20 811 Ga
- Bo'z yerlar - 285 Ga
- Shaxsiy tomorqa xo'jalik yerlari - 5295 Ga
- Pichanzor va yaylovlar - 6608 ga
- Bog'dorchilik va sabzovotchilik yerlari - 5010 Ga
- Tumandagi jami daryo, soy, kanal uzunligi - 170 Ga



- Yerning balandligi - 350 - 800 m
- Hududda shifobaxsh mineral suv mavjud
- Viloyatida 16 daryo va soy, ko'plab mavsumiy soylar mavjud
- Havo harorati iyunda +35+45°
- Yanvarda temperatura −25° gacha pasayadi
- Vegetatsiya davri 229 kun

Namangan viloyati aholi bandlik darajasi

Namangan viloyatida bandlik tarkibi






2025-yil holatiga ko'ra ko`chib kelganlar soni
202 ta



2025-yil holatiga ko'ra ko`chib ketganlar soni
539 ta

Yosh guruhlari bo'yicha doimiy aholi soni
2024 yil 1 yanvar holatiga



- 0-2 yosh
- 3-5 yosh
- 6-7 yosh
- 8-15 yosh
- 16-17 yosh
- 18-19 yosh
- 20-24 yosh
- 25-29 yosh
- 30-34 yosh
- 35-39 yosh
- 40-49 yosh
- 50-59 yosh
- 60-69 yosh
- 70-74 yosh
- 75-79 yosh
- 80-84 yosh
- 85 yosh va kattalar

Chust tumanidagi ma'daniy-ijtimoiy obyektlar



Transport yo'llar

Chust tumani transport yo'llari infratuzilmasini yaxshilash bo'yicha bir qancha loyihalar amalga oshirilmoqda. Masalan, avtomobil yo'llari qoplamasini ta'mirlash, yo'l chetlariga lotoklar o'rnatish, piyodalar yo'lakchalarini qurish va yo'l belgilarini joylashtirish kabi ishlar bajarilmoqda.


Shuningdek, 2025-yilda tumanning obodonlashtirish boshqarmasi qo'shimcha zamonaviy transport vositalari va maxsus texnikalar bilan ta'minlanishi rejalashtirilgan.

Chust tumani kommunikatsiya ko'rsatkichlari

- Elektr ta'minoti: 100%
- Yo'l infratuzilmasi: 100%
- Tabiiy gaz ta'minoti: 84%
- Ichimlik suvi ta'minoti: 60%

Namangan shahridan master reja hududigacha masofa 44 km.

Chust tumanidan master reja hududigacha masofa 15,2 km.




- Aholi turar-joy uylari
- Jome' masjidlar
- Rezaksoy suv ombori
- Sanoat zonasi
- Bolalar bog'chasi
- Maktab
- Tez tibbiy yordam
- ovqatlanish joylari
- yoqilg'i to'ldirish shahobchasi

Hududning transport yo'llari tuzilmasi

– Master reja hududi (52 ga)

– II darajali ko'cha yo'li

– Chust va To'raqo'rg'on tumani chegarasi



Chust tumani iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha holat

Chust tumani umumiy yer maydoni



920 km²

1 km²
215 kishi

Chust tumanida bandlik tarkibi(kishi)



48 000 ta
Tadbirkorlik subyektlari



7 187 ta
O’zini o’zi band qilish



5 898 ta
Dehqon xo’jaligi



450 ta
Yakka tartibdagi tadbirkor

Chust tumanida mehnat resurslari umumiy holati:



Iqtisodiy faol aholi:
118200 nafar



Ishsizlar soni:
8500 nafar



Ishsizlik darajasi:
7,2 %



Tumandagi o‘rtacha oylik ish haqi: 3-3.5 mln so‘m

Jami aholisi: **285 600** kishi

Shahar aholisi: **195 400** kishi

Qishloq aholisi: **90 300** kishi

Chust tumanida aholi bandligi sohalar kesimida tahlil qilinganda, qishloq xo’jaligi asosiy ish beruvchi tarmoq ekanligi namoyon bo’lmoqda. Iqtisodiy faol aholi Namangan viloyati bo’yicha 1 214 000 kishini tashkil etsa, Chust tumanida bu ko’rsatkich 118 200 kishini tashkil etadi. Tuman viloyat bandlik darajasida 9.7% ulushga ega.

“Chustnon-Do‘stlarobod” MFY iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha holat

Chustnon-Do’stlarobod MFY umumiy yer maydoni



180 Ga

2821 kishi

Xonadonlar soni – **593** ta

Oila soni – **705** ta

Ko’chalar soni – **10** ta

Migrantlar soni – **82** ta

Ishsizlar soni – 65 nafar, shundan

Ayollar – 41 nafar

Erkaklar – 15 nafar

Yoshlar – 9 nafar

Chustnon-Do’stlarobod hududda tadbirkorlik sub’ektlar soni

Yuridik korxonalar soni	**5**
Kichik biznes sub’ektlari (ishlab chiqarish)	**2**
Yakka tartibdagi tadbirkorlar	**7**
Oilaviy tadbirkorlik	**14**

Mahalla infratuzilmasi va kommunikatsiya holati

Ichki yo‘llar	17.4 km
Transformatorlar	8 ta
Ichimlik suvi	40%
Tabiiy gaz	40%
Suyultirilgan gaz	60%

Mahallaning asosiy drayverlari

Chorvachilik


Bog’dorchilik

MFY hududida mavjud ijtimoiy soha obyektlari


Savdo do‘konlari	7
Umumiy ovqatlanish shahobchalari	3
Qishloq vrachlik punkti	1
Sport maydonchalari	1

Aholi o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma na'tijalari

Mahallalarning rivojlanish bo'yicha qanday ustuvorliklarni muhim deb bilasiz ?




- Turistik oqimni oshirish
- Infratuzilmani rivojlantirish
- Yangi ish o'rinlari yaratish
- Mahalliy xizmatlarni kengaytirish



Yangi turistik marshrutlar tashkil etish uchunqanday takliflaringiz bor


- Tabiiy joylarni o'z ichiga olgan yo'nalishlar
- Tarixiy obidalar markazlari bo'yicha marshrutlar
- Oila va bolalar uchun maxsus marshrutlar
- Sarguzasht turizmi uchu marshrutlar

Dam olish vaqtingizni aksariyat qanday sarflaysiz?




- Qarindoshlarnikida
- Yashash hududida
- Shaxar markazlarida
- Viloyatlarda
- Mamlakatdan tashqarida

Oylik daromadizngiz qancha?




- 1 mln so'mgacha
- 1-3 mln so'mgacha
- 3-5 mln so'mgacha
- 5-8 mln so'mgacha
- 8 mln so'mdan yuqori

Sizningcha , turizm rivojlanish hudud iqtisodiyotigaqanday ta'sir qiladi ?



- Ish o'rinlari soni oshadi
- Mahalliy tadbirkorlik rivojlanadi
- Yangi xizmat turlari paydo bo'ladi
- Soliq tushumlari oshadi


Agar hududingizda turistik majmua tashkil etilsa, o'zingizni qanday ishtrokchi sifatida ko'rasiz ?



- Dam oluvchi
- xizmat ko'rsatuvchi
- boshqa

Sizda mavjud daromad manbalarini belgilang





Shuningdek, Chust tumani tadbirkorlari o'rtasida ham so'rovnoma o'tkazilgan bo'lib, unda 72 ta tadbirkorlar qatnashishdi. Ushbu so'rovnomani o'tkazishdan maqsad hududni rivojlantirish tasavvurlari va maqsadlarini belgilab olishga qaratilgan edi. Respondent tadbirkorlarning 50 foizi savdo sohasida, 33.3 foizi qishloq xo'jaligi sohasda qolganlari xizmat ko'rsatish va boshqa sohalarda faoliyat yuritishib, hududda turistik majmuani rivojlantirish imkoniyatini yuqori deb baholashdi.E'tiborli jihati turistik hududni tashkil etilishi yangi ish o'rinlarini yaratish (41.7 foiz) va infratuzilmani rivojlantirish (33.3 foiz) omili sifatida ko'rildi.

Sayyohlik oqimi va turistlar tarkibi

Mahalliy va xorijiy turistlar:

Mahalliy turistlar: 3,750,000 nafar (yillik rejaga nisbatan 195% bajarilgan).

Xorijiy turistlar: 153,200 nafar (yillik rejaga nisbatan 99% bajarilgan).

Yashash muddati:

O'zbekiston bo'ylab sayohat qilgan xorijiy turistlarning o'rtacha qolish muddati 4 kunni tashkil etgan.

Asosiy kelib chiqish davlatlar:

Davlat	Turistlar soni	Foiz (%)
Rossiya	6 500	+36%
Qozog'iston	4 200	+23%
Tojikiston	2 800	+16%
Yevropa(Ger,Fra)	1 500	+8%
Boshqalar	3 000	+17%

Turistik obyektlar va joylashtirish imkoniyatlari

Obida turi	Joylashuvi	Potensial turistlar soni(yillik)
Chortog' tog' kurorti	Chortoq tumani	50 000+
Oqsoy mineral bulog'i	Pop tumani	30 000+
Namangan arxitektura yodgorliklari	Shahar markazi	100 000+
Chotqol biosfera qo'riqxonasi	To'raqo'rg'on tumani	20 000+

Mehmonxonalar

- **Jami mehmonxonalar**: 22 ta (8 tasi 1 yulduzli, 2 tasi 2 yulduzli, 10 tasi toifasiz).
- **Nomerlar soni** : 733 ta
- **Joylar soni**: 1,637 ta
- **Tunab qolishlar soni**: 656,913 birlik
- **O'zbekiston fuqarolari**: 91,661 nafar
- **Xorijiy turistlar**: 15,587 nafar

Ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari

- **Jami obyektlar**: 26 ta
- **Nomerlar soni** : 962 ta
- **Joylar soni**: 2,829 ta
- **Tunab qolishlar soni** 473,437 birlik
- **O'zbekiston fuqarolari**: 43,287 nafar
- **Xorijiy turistlar**: 2,763 nafar

Boshqa turdagi joylashtirish vositalari

- **Jami obyektlar**: 1 ta
- **Nomerlar soni** : 365 ta
- **Joylar soni** : 1,050 ta

Turistik yo'nalishlar va obyektlar

Pop, Chust, Turoqoqorgon, Chortoq va Uych tumanlarida 40 dan ortiq tarixiy-madaniy va ziyoratgohlar mavjud.

Chust tumanida Bibiona, Mavlono Lutfulloh Chustiy, Otchopar Eshon kabi ziyoratgohlar mavjud.

Namangan shahrida "Afsonalar vodiysi" tematik parki turistlarni jalb etmoqda.

Namangan viloyatining turli hududlarida turizmning ayrim yo'nalishlarini rivojlantirish uchun zaruriy imkoniyat va sharoitlar yaratilmoqda.

Ziyorat turizmi

Chortoq – tibbiy va ziyorat turizmi;

Tibbiyot turizmi

Namangan shahri – tibbiy xizmatlar ko'rsatish orqali tibbiyot turizmi;

Vino turizmi

Kosonsoy – uzumchilikni rivojlantirish asosida vinoturizm

Hunarmandchilik turizmi

Chust – hunarmandchilik va turizm

Dam olish turizmi

Yangiqo'rg'on va Pop – dam olish turizmi, tog' kurortlari bazasida.









Tumanning turizm jozibadorligi



1. Chust istirohat bog'i



2. Mavlono Lutfullo ziyoratgohi



3. Masjid muzeyi



4. Chust majmuasi



5. Chust bozori



6. Chust pichoqlari bozori



7. Ahmadsher majmuasi

Hududning rivojlanishiga ta'sir etuvchi iqtisodiy-ijtimoiy omillar

S. Kuchli tomonlari (Strengths)

Katta ishchi kuchi, ayniqsa, yoshlar orasida aholi soni ortib borishi.
Viloyatda uchta universitet mavjudligi.
Namangan shahridagi IT-park mavjudligi.
Namangan shahridagi Mono markaz va viloyatning tumanlarida mavjud bo'lgan boshqa o'quv maskanlari yoshlar, ayollar va nogironlar kabi kam ta'minlangan guruhlar o'rtasida kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.
Kengroq mintaqa va xalqaro miqyosda yaxshi transport aloqalari.
Yuqori sifatli meva va sabzavotlarni ishlab chiqaruvchi kuchli qishloq xo'jaligi sektori.

W. Zaif tomonlari (WEAKNESS)

Qishloq xo'jaligining iqtisodiy ustunligi va unga iqtisodiy jihatdan kuchli tayanishi.
Eksportning past darajasi.
Mehnat bozori ehtiyojlarini qondirish uchun tegishli malakali shaxslarning yetishmasligi.
Infratuzilmadagi tarixiy tanqislik.
Raqamli infratuzilmaning yetarli emasligi.
Rivojlanmagan xususiy sektor.
Ish joylariga kirish va kutilishi mumkin bo'lgan darajadagi ish haqi bo'yicha gender farqi.

O. Imkoniyatlari (Opportunites)

Tarixiy savdo yo'lining markazida joylashgan.
Mintaqaning birlamchi ishlab chiqarishiga qo'shimcha qiymat kiritish
Eksportga alohida e'tibor qaratgan holda qishloq xo'jaligi sektorini yanada rivojlantirish.
Tayyor mahsulot ishlab chiqarish va xomashyo ishlab chiqarishdan tashqari to'qimachilik sohasini yanada rivojlantirish.
Qo'shni davlatlar, xususan, Qirg'iziston va Tojikiston bilan aloqa va savdo-sotiqni kuchaytirish.
Dinamik va tashabbuskor kichik va o'rta biznes sektori
O'zbekistondagi asosiy o'zgarishlar va transformasiyaning hozirgi konteksti o'zlashtirilmagan yer va mineral resurslar.

T. Tahdidlar (Threats)

Yomon aloqa. Import eksportdan ko'p.
Sug'oriladigan maydonlarda tuproq sifatining pasayishi, suvning sho'rlanishi, botqoqlanishi va sharnol eroziyasi, noto'g'ri sug'orish amaliyoti, intensiv ishlov berish, tarixiy dehqonchilik amaliyoti va suvni ko'p talab qiluvchi ekinlarni taqsimlash natijasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining yo'qolishi.
Haroratning ko'tarilishi suv ta'minotining qisqarishiga va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining sezilarli darajada pasayishiga olib keladi.
Zilzilalar. Ekstremal ob-havo sharoitlarining ko'payishi, suv toshqinlari, ko'chkilar, sellar.

REZAKSOY

SWOT tahlil

SWOT tahliliga ko'ra viloyatda turizm sohasi, hususan master-reja taklif etayotgan loyiha bo'yicha yangi rivojlanayotgan xududlarni rivojlantirish imkoni mavjud bo'lib, unda quyidagilaga e'tibor qaratish lozim, ya'ni:

- O'zbekiston bozoriga asosiy e'tiborni qaratgan holda marketing va reklama materiallarini ishlab chiqish.
- Mavjud ob'ektlarga alohida e'tibor qaratgan holda kurort/sanatoriya sohasini yanada rivojlantirish.
- Mavjud imkoniyatlarni qo'shimcha ko'rib chiqish va tahlil qilish

SWOT
Tahlillar

S — Kuchli tomonlari (Strengths)

-Katta ishchi kuchi, ayniqsa, yoshlar orasida. Aholi soni ortib borishi
-Viloyatda uchta universitet mavjudligi.
-Namangan shahridagi IT-park mavjudligi.
-Namangan shahridagi Mono Markaz va viloyatning tumanlarida mavjud bo'lgan boshqa o'quv maskanlari yoshlar, ayollar va
-Nogironlar kabi kam ta'minlanganguruhlar o'rtasida kasbiy ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.
-Kengroq mintaqa va xalqaro miqyosda yaxshi transport aloqalari.
-Yuqori sifatli meva va sabzavotlarni ishlab chiqaruvchi kuchli qishloq xo'jaligi sektori.

W — Zaif tomonlari (WEAKNESS)

-Qishloq xo'jaligining iqtisodiy ustunligi va unga iqtisodiy jihatdan kuchli tayanishi.
-Eksportning past darajasi.
-Mehnat bozori ehtiyojlarini qondirish uchun tegishli malakali shaxslarning yetishmasligi.
-Infratuzilmadagi tarixiy tanqislik.
-Raqamli infratuzilmaning etarli emasligi.
-Rivojlanmagan xususiy sektor.
-Ish joylariga kirish va kutilishi mumkin bo'lgan darajadagi ish haqi bo'yicha gender farqi.

O — Imkoniyatlari (Opportunites)

-Tarixiy savdo yo'lining markazida joylashgan.
-Mintaqaning birlamchi ishlab chiqarishiga qo'shimcha qiymat kiritish.
-Eksportga alohida e'tibor qaratgan holda qishloq xo'jaligi sektorini yanada rivojlantirish.
-Tayyor mahsulot ishlab chiqarish va xomashyo ishlab chiqarishdan tashqari to'qimachilik sohasini yanada rivojlantirish.
-Qo'shni davlatlar, xususan, Qirg'iziston va Tojikiston bilan aloqa va savdo-sotiqni kuchaytirish.
-Dinamik va tashabbuskor kichik va o'rta biznes sektori.
-O'zbekistondagi asosiy o'zgarishlar va transformasiyaning hozirgi kontekisti.
-O'zlashtirilmagan yer va mineral resurslar.

T — Tahdidlar (Threats)

-Yomon aloqa.
-Import eksportdan ko'p.
-Sug'oriladigan maydonlarda tuproq sifatining pasayishi, suvning sho'rlanishi, botqoqlanishi va shamol eroziyasi, noto'g'ri sug'orish amaliyoti, intensiv ishlov berish, tarixiy dehqonchilik amaliyoti va suvni ko'p talab qiluvchi ekinlarni taqsimlash natijasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining yo'qolishi.
-Haroratning ko'tarilishi suv ta'minotining qisqarishiga va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining sezilarli darajada pasayishiga olib keladi.
-Ekstremal ob-havo sharoitlarining ko'payishi,suv toshqinlari, ko'chkilar, sellar

REZAKSOY

II Bob. Master-reja hududining iqtisodiy-ijtimoiy holati

ARCHITECTURE & ENGINEERING GROUP

Viloyatning turistik potensiali


Qulay transport imkoniyati sayyohlik yo'nalishini tanlashda asosiy omillardan biri va sayyohlarga yo'naltirilgan har qanday shahar muvaffaqiyatining kalitidir.





O'zbekiston Respublikasi hududlaridan kelish						
No	qayerdan - qayerga	Avtomobilda	Poezdda	Samolyotda	Narxi	Masofasi
1	Toshkent - Namangan	5 soat 14min	5 soat 03min	1 soat 00min		284 km
2	Andijon - Namangan	1 soat 22min	2 soat 05min	—		70 km
3	Farg'ona - Namangan	1 soat 32min	—	0 soat 50min		81 km
4	Guliston - Namangan	6 soat 14min	7 soat 24min	—		340 km
5	Jizzax- Namangan	7 soat 41min	8 soat 39min	—		430 km
6	Samarqand - Namangan	9 soat 03min	10 soat 20min	0 soat 50min		540 km
7	Qashqadaryo - Namangan	11 soat 21min	—	—		690 km
8	Surxondaryo - Namangan	15 soat 19min	—	1 soat 10min		920 km
9	Navoiy - Namangan	11 soat 35min	12 soat 37min	—		690 km
10	Buxoro- Namangan	13 soat 10min	13 soat 43min	—		810 km
11	Xorazm - Namangan	18 soat 46min	—	—		1180 km
12	Qoraqalpog'iston - Namangan	20 soat 56min	22 soat 30min	1 soat 20min		1310 km





Master reja hududi **52 Ga**

Chust qirg'oq bo'yi hududining mavjud holati geolokatsiyasi

















Namangan viloyati tumanlarining "o‘sish nuqtalari" va «drayver sohalari"

Namangan shahri

Kichik sanoat zonalari, to'qimachilik sanoati va tibbiy xizmat ko'rsatishni rivojlantirish



Norin tumani

Baliqchilik va quyonchilik klasterini tashkil etish, ekoturizm, to'qimachilik sanoatini rivojlantirish



Chust tumani

Hunarmandchilik, qurilish materiallari sanoati va turizm sohalarini rivojlantirish



Mingbuloq tumani

Meva-sabzavotchilik, baliqchilik sohalarini rivojlantirish, paxta-to'qimachilik klasterlarini tashkil etish



Uychi tumani

Charm-poyabzal, to'qimachilik sanoati, parrandachilik sohalarini rivojlantirish



Uchqo’rgon

Meva-sabzavotchilik, qurilish materiallari sanoati va turizm sohalarini rivojlantirish



Kosonsoy tumani

Sog'lomlashtirish turizmi, uzumchilik sohalari, qurilish materiallari, farmasevtika sanoatini rivojlantirish



To‘raqo‘rg‘on tumani

To'qimachilik, qurilish materiallari sanoati, hunarmandchilik, turizm sohalarini rivojlantirish



Namangan tumani

Issiqxona kooperasiyalarini tashkil etish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish va qayta ishlash sohalarini rivojlantirish, kichik sanoat zonalari tashkil etish.



Chortoq tumani

Meva-sabzavotchilik, uzumchilik, tibbiy va ziyorat turizmni rivojlantirish, chorvachilik klasterlari tashkil etish



Namangan viloyati O'zbekistonning Farg'ona vodiysining sharqiy qismida joylashgan bo'lib, boy tabiiy resurslar, unumdor tuproqlar, suv manbalari va biologik xilma-xillikka ega. Viloyatning iqlimi mo'tadil kontinental bo'lib, qishloq xo'jaligi, turizm va sanoat rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

O'rmon va yaylovlar

O'rmon maydoni: 50,000 gektar (Chortoq tog'lari, Chatqol tizmalari)

Yaylovlar: 120,000 gektar (qoramol va qo'ylar uchun)

Mineral resurslar

Foydali qazilmalar: Oltin, mis, qo'rg'oshin, marmar, ohaktosh

Ekologik muammolar

- **Suv tanqisligi** – noto'g'ri sug'orish tizimi
- **Tuproqning sho'rlanishi** – kimyoviy o'g'itlarning haddan tashqari ishlatilishi
- **Atmosfera ifloslanishi** – sanoat korxonalari va transportdan chiqadigan chiqindilar

Tabiiy resurslar va ularning holati

Tabiiy resurs	Holati	Eslatmalar
Suv resurslari	Cheklangan	Suv ta'minoti va sifatida muammolar mavjud
Tuproq unumdorligi	O'rtacha	Tuproq eroziyasi va sho'rlanishi kuzatilmoqda
O'rmon fondi	Kam	O'rmon ekish va tiklash ishlari zarur
Biodiversitet	O'rtacha	Ba'zi turlar xavf ostida

Ekologik muhofaza va tiklash choralari

Chora-tadbir	Maqsad	Natija
Ekoturizmni rivojlantirish	Tabiatni saqlash va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish	10 ta yangi ekoturizm manzili tashkil etildi
Suv resurslarini boshqarish	Suv ta'minotini yaxshilash	Suv omborlari va kanallarni rekonstruksiya qilish ishlarini amalga oshirildi
O'rmon ekish va tiklash	O'rmon fondini kengaytirish	Yangi o'rmon ekish loyihalari boshlanmoqda.
Biodiversitetni saqlash	Xavf ostidagi turlarni himoya qilish	Tabiiy rezervatlar va ekologik zonalar tashkil etilmoqda.


Iqtisodiy faol aholi soni jami(ming kishi)





Ishsizlar(ming kishi)





Viloyatdagi iqtisodiy faol aholi soni

O'rtacha oylik ish haqqi
3 209 842 dan
10 460 901gacha

Iqtisodiyotda bandlar(ming kishi)





Ishsizlik darajasi, foizda



1 Strategik muhim

Bugungi kunda Namangan O'zbekistonning sharqiy iqtisodiy va madaniy markazi sifatida aloqalarni kuchaytiradi. Qo'shni viloyatlar va aholi punktlari bilan chegaradosh bo'lgan yirik aglomeratsiyani shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etuvchi hudud bo'lib, bugungi kunda uning aholisi 3187500 ming kishini tashkil etadi.

+

2 Iqtisodiy barqaror

Iqtisodiyotning an'anaviy va istiqbolli (turizm, innovatsiya) tarmoqlarini rivojlantirish, tashkil etilishi rejalanayotgan madaniy markazni, innovatsion markazni,investitsion infratuzilmalar Namanganning mehnat bozorini sezilarli darajada oshiradi va vodiy aglomeratsiyada mehnat, madaniy va infratuzilma aloqalarini mustahkamlaydi.

+

3 Turizm

Turizmning yangi turlari va sayyohlik oqimining o'sishi turizm sohasidagi mutaxassislarga talabni oshiradi, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishni rag'batlantiradi, Namangan va aglomeratsiyaning butun iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

+

4 Yangi ish o'rinlari

Yangi tarmoqlarda bo'sh ish o'rinlarining ochilishi Namangan viloyatida istiqomat qiluvchi hamda vodiydan mutaxassislarni jalb qiladi, bu esa viloyat va tumanda o'zlarining yuqori malakali kadrlarini yetishtirishni rag'batlantiradi.

+

5 Hududning yangi imkoniyatlari

Turizm sektori, oziq-ovqat sanoati va qishloq xo'jaligi kesishmasida turizmning yangi tarmoqlari va turlari paydo bo'ladi: gastronomiya, ko'ngil ochar, xalqaro festivallar turizmi, madaniy kognetiv turizmni shakllantiradi.

Yangi Zelandiya

Yangi Zelandiya Tinch okeanining janubi-g'arbiy qismida joylashgan orol davlat bo'lib, ikkita asosiy oroldan – Shimoliy va Janubiy orollardan iborat. Mamlakat o'zining boy tabiati, tog'lari, ko'llari va plyajlari bilan mashhur. Shuningdek, Yangi Zelandiya maori madaniyati va zamonaviy shaharlari bilan ham tanilgan.

Milford SoundJanubiy orolda joylashgan, fjordlar va qoyalar bilan o'ralgan go'zal suv havzasi.

- Poytaxt: Vellington
- Eng yirik shahar: Oklend
- Rasmiy tillar: Ingliz tili, Maori tili
- Rotorua geotermal hududi Issiq buloqlar bilan tanilgan.
- Yangi Zelandiyaning eng qadimiy milliy bog'i bo'lib, faol vulqonlar va rang-barang ko'llar bilan mashhur.







Norvegiya

Norvegiya Skandinaviya yarim orolining g'arbiy qismida joylashgan, uzoq qirg'oqlari, fjordlari va tog'lari bilan mashhur davlatdir. Mamlakat boy tarixga ega bo'lib, vikinglar davridan boshlab bugungi kungacha o'z madaniyatini saqlab kelmoqda.

Lofoten orollari Arktika doirasida joylashgan, baland tog'lar va baliqchi qishloqlari bilan mashhur.

- Yozgi oq tunlar – Iyunda quyosh botmaydigan "midnight sun" fenomeni.
- Tabiat bilan tanishish
- Viking merosi – Viking kemalari muzeyi va tarixiy joylar.
- Norveg oshxonasi – Dengiz mahsulotlari, ayniqsa losos va qizil ikra.
- Ekskursiyalar











Irlandiya

Irlandiya "Zumrad orol" nomi bilan mashhur bo'lib, bu uning yam-yashil manzaralari va sernam iqlimi bilan bog'liq. Mamlakatning g'arbiy qirg'oqlari Atlantika okeani bilan chegaradosh bo'lib, ulkan qoyalar va go'zal sohillarga ega:


- Hududi: yakuniy maydoni taxminan 70,273 kvadrat km.
- Aholisi: taxminan 5 million kishi.
- Rasmiy tillar: irland (Gaelik) va ingliz tillari.
- Mamlakatda rasmiy ravishda ilonlar yo'q; afsonaga ko'ra, Avliyo Patrik ularni oroldan haydab chiqargan.
- Pul birligi: Yevro (€).

Geografik joylashuvi

Tuman hududi Chatqol tog'larining etaklaridagi pastbaland tekisliklarda joylashgan. Ko'p qismi adir. Balandligi 1000 — 1200 m. Tog'lardan oqib tushadigan soylar (G'ovasoy, Olmossoy, Shataksoy, Rezaksoy, Karkidonsoy va boshqalar) jarliklar hosil qilgan. Janubiy qismi Sirdaryoga tutash bo'lib, tekislikdan iborat.

1947-yilda ishga tushirilgan Chust kanali Kosonsoy suv ombori suvini 58 km masofaga — Olmos qishlog'igacha olib boradi. 1973-yilda suv taqsimlaydigan G'ovasoy gidrouzeli qurildi. Ko'ksaraksoy suv ombori va Chust nasos stansiyasi bor. Iqlimi kontinental. Yillik o'rtacha temperatura 1G. Yanvarning o'rtacha temperaturasi —1,3°, eng past temperatura —26°. Iyulning o'rtacha temperaturasi — 25,8°, eng yuqori temperatura — 40°. Yiliga 305 mm yog'in tushadi. Vegetatsiya davri 190 kun. Tuproqlari tekisliklarda bo'z tuproq, adirlar qum, tosh, lyoss, mergel bilan qoplangan. Yovvoyi o'simliklardan shuvoq, yantoq, do'lana, qizilmiya, oqmiya, yovvoyi piyoz, lola va boshqa o'sadi. Yovvoyi hayvonlardan bo'ri, tulki, quyon, sutur, qobon uchraydi.

Hudud geografik joylashuvi




Hududning geografik joylashuvi va iqlimiy ko'rsatkichlari


Rezaksoy suv ombori — Qurama tog' tizmalaridan oqib tushadigan rezaksoy daryosida qurilayotgan gidrotexnika inshooti. Namangan viloyatidagi Chust shahridan 5 km uzoqlikda joylashgan. Qishloq xo'jaligi ekinlarini suv bilan ta'minlash maq-sadlariga xizmat qiladi. Suv ombori 2003-yilda qurilgan.O'zanli tipda. Rezaksoy suvini mavsumiy tartibga soladi. Loyihaga ko'ra to'g'oni uzunligi 3200 m, balandligi 80 m, to'liq sig'imi 200 mln.m3. Rezaksoy suv ombori. Tarkibida tosh-tuproqli to'g'on, Sirdaryoga va Shimoliy Farg'ona kanaliga 40 m3/s dan suv berish imkoniyatiga ega bo'lgan 2 inshoot hamdasuv tashlama inshootlar bor. Suvi Namangan viloyati yerlarini sug'orishda foydalaniladi.







Nisbatan joylashuv o'rni va masofalari



Namangan shahar	**26 km**	"Chustnon Do'stlarobod" MFY	
Namangan shahar avtovokzali	**40 km**	Master-reja hududi	
Chust shahri	**14 km**	Master-reja hududi	
"Chustnon Do'stlarobod" MFY hududi	**14.4 km**	Master-reja hududi	

Chust tumani havo darajasi bo'yicha ko'rsatkich

23	28	26	27	24

25,6


O'rganilgan ma'lumotlarga ko'ra, Chust tumanining, 5 kunlik o'rtacha havoning PM2.5 darajasi bo'yicha ko'rsatkichi

Ko'pgina tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki,PM2.5 12 mkg/m3 yoki undan past darajalar sog'lom hisoblanadi va ta'sir qilish xavfi deyarli yo'q. Agar miqdor 24 soat ichida35 mkg/m3 ga yetsa yoki undan oshsa,havo xavfli deb tasniflanadi va astma kabi nafas olish muammolari bo'lgan odamlaruchun muammo tug'dirishi mumkin. 50 mkg/m3dan yuqori darajalarga uzoq vaqt ta'sir qilish jiddiy sog'liq muammolariga va erta o'limga olib kelishi mumkin.



Havo indeksining o'zgarishi inson sog'lig'iga qanday ta'sir ko'rsatadi?





III-IV Bob. HUDUDNI RIVOJLANTIRISH MAQSADLARI, TAKLIF ETILAYOTGAN INVESTITSIYA VA INFRATUZILMA LOYIHALARI

ARCHITECTURE &
ENGINEERING GROUP

REZAKSOY

Mahalliy hokimiyat, mahalla faollari hamda investorlar takliflari

Chust hududida rekreatsion hudud tashkil etish loyihasini infratuzilma bilan ta'minlash uchun davlat byudjetidan mablag' ajratish talab etiladi.

Chust hududida 52.0 gektar yer maydonida tashkil "etilgan rekreatsion hudud" infratuzilma tarmoqlarini tartibga keltirish va tekislash orqali 52 gektar yer maydoni bo'sh turganligi sababli samarali foydalanish va shahar markaziga olib boruvchi 15.5 km kirish yo'li hamda ichki yo'llarni asfaltlash uchun mablag' ajratish.










QUYOSH PANELLARI



Hududdagi binolarning tom qismi quyosh panellari bilan jihozlanishi loyihalashtirilgan bo'lib, bundan maqsad: quyosh nuridan foydalanib arzon, toza va barqaror elektr energiyasi ishlab chiqarishdir. Binolarning energiya tejamkor va ekologik xavfsiz bo'lishi yashil iqtisodiyotga o'z hissasini qo'shadi. Quyosh paneli elektr sarfining 30%ini qoplay oladi.

AQLLI YORITGICHLAR



Sensorli(fotodatchik) ko'cha chiroqlari - Tungi payti avtomatik yonadi va kunduz kuni o'chadi. Faqat odam yoki transport vositasi yaqinlashganda yonadi. Harakat to'xtaganda yoki uzoqlashganda o'z-o'zidan o'chadi yoki xira holatga o'tadi. Yana afzal tomonlari: quyoshdan quvvat olgan holda ishlaydi va atrof - muhitga zararsiz.

CHIQINDI SUVLARNI QAYTA ISHLASH



Chiqindi (yoki oqova) suvlarini qayta ishlash — bu ekologik va iqtisodiy jihatdan muhim jarayon hisoblanadi. Qayta ishlashning quyidagi foydali jihatlari mavjud:
- Atrof muhitni muhofaza qilish
- Suv resurslarini tejash
- Energiya va resurslarni qayta ishlash

ELEKTROMOBIL QUVVATLASH STANSIYALARI



Hududda mavjud bo'lgan avtoturargohlar elektromobillar uchun quvvat to'ldirish stansiyalari ham o'z ichiga oladi. Bu esa yashil iqtisodiyot tamoyillariga mos keladi. Shu bilan birga, qo'shimcha daromad manbai hamdir.

Atrof - muhitni muhofaza qilish bo‘yicha zarur choralar





Qurilish smeta hujjatlari

Lot raqamlari	Umumiy yer maydoni	Qurilish osti maydoni	Yashil maydonlar, Ga	Tashrif buyuruvchilar soni, 1 oyda	O'rtacha narx	Jami o'rtacha yillik tushum	Qurilish xarajati	Yashil hudud xarajatlari	Ichki yo'laklar xarajati	Umumiy loyiha qiymati	Davlat byudjetiga kutilayotgan soliq tushumi	Qoplash muddati, yilda	Ishchi kuchi
Lot 1	3.97	0.71	1.39	930	6 625 000	51 226 800 000	37 218 600 000	8 904 000 000	19 489 600 000	49 567 700 000	9 272 340 000	7	225
Lot 2	2.10	0.44	1.354	1968	2 820 000	14 869 200 000	21 205 600 000	7 611 500 000	8 300 500 000	43 173 300 000	473 460 000	10	152
Lot 3	5.90	0.4	3.56	6008	144 500	102 802 800 000	42 094 000 000	22 968 500 000	6 987 500 000	72 364 500 000	5 192 640 000	10	488
Lot 4	6.24	0.49	4.081	3450	760 000	23 232 000 000	32 064 000 000	25 739 000 000	12 129 000 000	77 857 000 000	1 236 600 000	3.5	280
Lot 5	4.94	0.1	2.187	1135	6 821 400	61 092 000 000	52 416 000 000	14 150 500 000	9 769 000 000	84 500 000 000	3 510 600 000	5	180
Lot 6	6.20	0.11	2.079	801	1 060 000	10 404 000 000	42 326 000 000	12 246 000 000	12 802 000 000	68 705 000 000	520 000 000	7	248
Lot 7	6.28	0.88	3.035	4960	915 000	42 270 000 000	37 170 000 000	18 421 000 000	25 974 000 000	58 214 000 000	2 068 500 000	5.5	208
Lot 8	3.81	0.57	1.854	785	1 500 000	10 320 000 000	15 512 000 000	12 525 000 000	14 651 000 000	57 265 000 000	516 000 000	8	120
Lot 9	7.47	1.27	3.958	1260	672 000	26 880 000 000	59 332 000 000	28 539 000 000	35 484 000 000	140 075 000 000	1 344 000 000	6.8	363
Lot 10	6.95	1.227	1.952	2180	1 300 000	28 644 000 000	47 829 000 000	12 713 000 000	21 110 000 000	86 164 000 000	1 424 400 000	7.5	150
Jami:	**52**	**6.20**	**26.18**	**22 567**	**2 020 000**	**371 740 800 000**	**344 841 200 000**	**156 678 500 000**	**216 672 400 000**	**730 961 500 000**	**24 655 980 000**	**10**	**2414**

Davlat byudjeti tomonidan qoplanadigan xarajatlar ro'yxati:

	Jami uzunligi	Qiymati (so'm)
Elektr tarmog'i va TP lar	15.5 km	12 050 000 000
Ichimlik suvi tortish va saqlash inshoati	3.15 km	5 350 000 000
Chiqindi suvlarni yig'ish tarmog'i va qayta ishlash	3.07 km	6 580 000 000
Jami:		**23 980 000 000**

Oqava suvlarni qayta ishlash stansiyasi «ЛОС-200» jami 3 ta - 5,8 mlrd. so'm

Jalb qilinadigan mablag'larning umumiy qiymati: 23 980 000 000 so'm

Davlat byudjetidan qoplanadigan mablag': 23.98 mlrd **(3.28%)**

Umumiy mablag': 730.96 mlrd **(96.72%)**

1. Yaqin muddatli qoplash

Investitsiya tez qaytadi, iqtisodiy samaradorlik yuqori.

Lot 4 — 3,5 yil

Lot 5 — 5,0 yil

Lot 7 — 5,5 yil

2. O'rta muddatli qoplash

Barqaror daromad beruvchi, o'rtacha investitsiya sikliga ega.

Lot 1 — 7,0 yil

Lot 6 — 7,0 yil

Lot 9 — 6,8 yil

Lot 10 — 7,5 yil

3. Uzoq muddatli qoplash (strategik lotlar)

Yirik hajmli, tashrif oqimi va infratuzilma talabi yuqori bo'lgan loyihalar.

Lot 2 — 10 yil

Lot 3 — 10 yil

Lot 8 — 8,0 yil

Qoplash muddati tahliliga ko'ra, Lot 4, 5 va 7 eng tez investitsiya qaytimi bilan ajralib turadi. Lot 1, 6, 9 va 10 o'rta muddatli, barqaror iqtisodiy samaradorlikka ega. Lot 2, 3 va 8 esa uzoq muddatli, strategik rivojlanishga yo'naltirilgan lotlar hisoblanadi.

Mini-Golf

Master reja hududida Mini-Golf maydoni joylashgan bo'lib-bu an'anaviy golfning ixcham va qiziqarli varianti bo'lib, unda maydon ancha kichik, to'siqlar va qiziqarli manzara elementlari bo'ladi. Odatda, u oila a'zolari, bolalar va do'stlar uchun mo'ljallangan. Mini-golf – kam sarmoya bilan yuqori daromad keltiradigan biznes. Bu loyiha sayyohlar va mahalliy aholiga mo'ljallangan dam olish maskani sifatida tashkil qilinsa, yillik daromad $1M – $10M gacha yetishi mumkin.

Turistik dam olish maskanida Mini-Golf qurishning asosiy afzalliklari"

- Minimal joy talab etadi.
- Barcha yoshdagilar uchun mos .
- Dastlabki investitsiya tez qaytadi.
- Xizmat ko'rsatish arzon.
- Qo'shimcha xizmatlar bilan daromad oshirish imkoniyati.

Loyihaning texnik-iqtisodiy ko'rsatgichlari

Mini-Golf lot raqami:58
Umumiy maydoni: 0.77 ga
Umumiy qurilish maydoni: 2360 m²
Umumiy yashil maydonlar: 4330 m²
Umumiy qiymati: 7 189 000 000 so'm
Moliyalashtirish manbalari:
Davlat investitsiyasi: %
Xususiy investitsiya: **100%**
Yaratiladigan ish o'rni:









Tyubing

Master reja hududida Tyubing — bu qorli yoki suvli sirtlarda maxsus kameralar yoki shinalardan foydalanib, sirpanish orqali dam olish turi. Qishda tyubing qorli tepaliklardan pastga tushish uchun ishlatiladi; bu jarayonda odamlar maxsus rezina yoki plastik kameralar ustida o'tirib, tepalikdan pastga sirpanishadi. Yozda esa tyubing daryolar yoki suv kanallarida amalga oshiriladi, bunda odamlar shinalar yoki maxsus kameralar ustida suv bo'ylab oqib borishadi.

Turistik dam olish maskanida Tyubing qurishning asosiy afzalliklari"

- Har qanday yoshdagi odamlar uchun mos
- Sport bilan shug'ullanish va hordiq chiqarishning oson va arzon yo'li
- Adrenalin va zavq beruvchi mashg'ulot
- Oilaviy va do'stlar bilan birga maroqli vaqt o'tkazish uchun ajoyib imkoniyat.

Loyihaning texnik-iqtisodiy ko'rsatgichlari

Tyubing lot raqami: 59
